O‘ZBEKISTONNING TURISTIK SALOHIYATI

Xursheda Fayzullaeva
Registon ansambli gid-tarjimoni

https://doi.org/10.5281/zenodo.7766646

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, mamlakatning turistik imkoniyatlarini oshirish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qiligan.

Kalit so‘zlar: “O‘zbekturizm”, “turistik tur”, “Ochiq osmon” rejimi, kurort hududlar, lirik shart-sharoitlar.

Bugun yurtimizda turizm sohasi nisbatan yangi bo‘lishiga qaramay, rivojlanishda ko‘pgina sohalardan oldinga chiqib oldi. Xalqaro turizmni rivojlantirish uchun bizning diyor juda katta salohiyatga ega. O‘tmishga nazar solsak, mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonni hech kim istiqbolli turizm hududi sifatida bilmas edi. 1992-yilning 27-iyulida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti farmoni bilan “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tashkil topdi. “O‘zbekturizm” ning asosiy vazifasi turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishdan iborat. Qolaversa, respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha mavjud imkoniyat va sharoitlardan samarali foydalanilmoqda hamda xalqaro turizm yo‘nalishida respublikaga tashrif buyuruvchilarning talab ehtiyojlarini qondirishga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda.

Xorijdan kelgan har bir sayyoh uchun birinchi taassurot samolyot trapidan tushib, aeroport vokzaliga kirishi, yoki temiryo‘l poyezdida kelganlar uchun temiryo‘l vokzalidan boshlanadi. Undan so‘ng transport vositalarida vokzaldan mehmonxonagacha boriladi. Turizm uchun xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarning holati sayyohlar uchun qulay, bezarar va to‘siqsiz bo‘layotgani esa yanada quvonarlidir.

Budan tashqari, turizmni rivojlantirishda hamda turistlarning dam olishida, hissiyotini muvozanatlantirishda, lirik shart-sharoitlarni vujudga keltirishda o‘rmon boyliklari ham katta o‘rin tutadi. Chunki o‘rmonlar toza havoni ishlab chiqaruvchi asosiy manba, salomatlikni qayta tiklashga xizmat qiladigan maskan, kurort hududlarida shovqinni qaytaruvchi asosiy vositalardan hisoblanadi. Ba’zi bir mutaxassislar turizmni iqtisodiy jarayon sifatida “turistik tur” tushunchasiga xos mazmun orqali ifodalasalar, boshqalari esa turistik tashkilotlar faoliyati sifatida izohlaydilar.

Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, dunyo bo‘ylab sayyohlarning qariyb 60 foizi qimmat ekaniga qaramasdan, havo transportidan foydalanadi. Shu sababli dastlab milliy aviakompaniyamiz tomonidan aviachiptalar narxini optimallashtirish, yangi reyslar ochish, tranzit yo‘lovchilarni tashish imkoniyatini oshirish va aviaqatnovlar geografiyasini kengaytirish hamda mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini oshirish ishlari tashkil etilib va bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanilmoqda. Jumladan: keyingi yillarda chet el tajribasini o‘rganish asosida “Qarshi” aeroportida “Ochiq osmon” rejimi joriy qilinib, sayyohlarga keng erkinlik yaratilmoqda.

Ma’lumotlarga qaraganda, turistlik xizmat bozori turistlik mahsulotni sotish va sotib olish jarayonini ta’minlovchi talab hamda takliflarni birlashtiruvchi, ishlab chiqaruvchi va turistlik mahsulot iste’molchisi o‘rtasida jamoa iqtisodiy munosabatlarini yuzaga keltiruvchi jabha hisoblanadi.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida vizasiz sayohatlarning yo‘lga qo‘yilgani bois, turizm sohasining keskin rivojlanishiga erishilmoqda. Ana shu hududlarda turistlarning soni

muntazam ortib borayotgani kuzatilmoqda. Biroq ba'zi bir mamlakatlarning ajoyib taomlari, noyob madaniy merosi, samimiy va insonparvar xalqi bo'lishiga qaramasdan, ular dunyo sayyohlari mo'ljalidan ancha chetda qolayotganini ham e'tirof etish joiz bo'ladi. Qolaversa, chipta narxlari past aviakompaniyalarning faoliyatini yo'lga qo'yilishi ham sayyohlar sonining jadal oshishiga olib keladi. Bunday aviakompaniyalar unchalik mashhur bo'lmagan joylarda ham turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda kichik shaharlarda ushbu sohani taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Yangi joylarga sayohat qilishni istagan insonlar uchun rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining yashirin tarixiy durdonalarini, tabiati va boshqa voqeligi, jumladan, an'analarini targ'ib qilish masalalarini takomillashtirishi zarur bo'ladi.

Shuningdek, inklyuziv muhitning yaratilgani ham turistlarni jalb qilishning muhim omili hisoblanadi. Chunki keksa kishilar va nogironligi bo'lgan odamlar o'zlari uchun ko'proq qulayliklar yaratilgan muhit mavjud bo'lgan mamlakatlarga sayohat qilishni istashadi. Demak, turizmni rivojlantirishni maqsad qilgan har qanday mamlakat nogironligi bop kishilar uchun sharoitlarni yaratishga intiladi. Shaharlarni har tomonlama rivojlantirishga mo'ljallangan mavjud loyihalar bilvosita O'zbekistonda turizm sanoati o'sishi va uni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Darvoqe, turizm barqaror rivojlanishi uchun turistlar oqimi ham adolatli tarzda taqsimlanishi, nafaqat mehmonlarning, balki ularga mezbonlik qiluvchi shaharlarning xavfsizligining ta'minlanishiga jiddiy ahamiyat qaratilishi, atrof-muhitning ifloslanishiga va aholi tiqilinch bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi lozim. Bu rivojlangan mamlakatlar uchun ham, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham eng zarur bo'lgan jarayon hisoblanadi. O'zbekistonda turizm sohasi nisbatan yangi bo'lsa-da, u rivojlanishda ko'pgina sohalardan oldinga chiqib oldi.

References:

1. O'zME Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil, 147-bet.